

OLIGOFRENOPEDEGOGIKA FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Abdurashidova Dilduza Abdurasul qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bu maqola maxsus pedagogikaning to'rt yo'nalishidan biri Oligofrenopedagogika fani haqida bo'lib, siz bu maqola orqali Oligofrenopedagogika fani qanday nuqsonli bolalarni o'rganishi, maqsadi va vazifalari haqida bilib olasiz.*

Kalit so'zlar: *korreksiya, aqli zaiflik, didaktik, umumpedagogik, maxsus ta'lim, yordamchi maktab, pedagogik-psixologik, endogen, ekzogen.*

KIRISH

Oligofrenopedagogika — aqli zaif bolalami tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiyaning bir qismi hisoblanadi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik tamoyillarini qo'llash aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi.

Yordamchi maktablardagi pedagogik jarayonlarning nazariy asosini maxsus fan - oligofrenopedagogika tashkii etadi (grek tilida «oligos» — kam, «fren» — aql degani).

Tuzatish (korreksiya) deganda aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'rilash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslaniladi. Aqli zaif bola deganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg'un pasayishini tushunamiz. Aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni o'rganishning nazariy masalalari qator fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Oligofrenopedagogika umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, oligofreniya' klinikasi, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, biokimyo va boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan keng foydalanadi.

Oligofrenopedagogika fanining asosiy maqsadlaridan biri intellektual kamchiligi bo'lgan bolalarning kamol topib borishi, umumiy rivojlantirishini faollashtirishda maxsus pedagogik-psixologik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bu bolalar ta'limi-tarbiyasi va ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni korreksiyalashni (to'g'rilashni) o'rgatuvchi fan sifatida yuzaga kelgan. Oligofrenopedagogika asosiy maqsadi intellektida nuqsoni bolgan bolalarga ma'lum fan asoslariga oid bilim berish, korreksion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, mehnat faoliyatiga, kasb-hunarga, ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Oligofrenopedagogika fani o'z oldiga quydagi maqsadlarni qo'ygan:

1. Yordamchi maktabda maxsus ta'lim-tarbiya berishning mazmun mohiyatini anglatish

2. Aqli zaif o'quvchi shaxsini rivojlanishining asosiy omillari, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kabi masalalar, ta'limning ma'lumot beruvchi va kolleksion rivojlantiruvchi masalalariga ko'proq e'tibor qaratish.

3. Yordamchi maktabda o'quvchilar tarbiyasiga oid tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'limida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning ilmiy asoslari, tarbiyaning o'ziga xos mohiyati va uslublari kabilarni o'z ichiga oladi

Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordam tashkil etish masalalari, aqli zaif bolalarni o'qitish va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda ishtimoiy-pedagogik omillar haqida, aqli zaif bolalar tasnifi hamda uning aqli zaif bolalar uchun maxsus muassasalarni differensiyalashdagi ahamiyati hamda yordamchi maktab o'quvchilarining pedagogik tasnifi borasida ma'lumotlar berishni ko'zda tutadi. Aqli zaiflikning yengil darajalarida bu nuqson tashqaridan qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydi. Butun dunyo sog'lomlashtirish jamiyati tomonidan intellekt ko'rsatkichini belgilashga oid shartli belgilar qabul qilingan.

Aqli zaiflik 4 ta daraja bilan shifrlanadi bular:

- 1) Yengil darajadagi aqli zaiflik F-70
- 2) O'rta darajadagi aqli zaiflik F-71
- 3) Og'ir darajadagi aqli zaiflik F-72
- 4) Chuqur og'ir darajadagi aqli zaiflik F-73

Bunday bolalarda odatdagi nuqsonni tengqurlaridan ajratib olish ham ko'p hollarda, qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi hollarda tegishli ta'lim-tarbiya amalga oshirilmasa, bunday bolalar pedagogik qarovsiz bolalar safiga kirib qoladilar. Ko'p hollarda yengil darajadagi aqli zaiflik hollari ilk yoshlarda aniqlab olinmasligi natijasida rivojlanishi orqada qolgan, sustlashgan bolalarga aralashtirib yuboriladi. Nuqsonli bolalarni diagnostika qilish ishlaridagi xatoliklar ba'zi hollarda ko'ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, ommaviy maktabga tushib qolgan aqli zaif bola nuqsonsiz tengqurlari singari ular bilan birga o'quv materiallarini o'zlashtira olmaydi. O'z vaqtida malakali yordam olmagandan keyin borgan sari bunday bolalarning bilim saviyasi pasayib, surunkali o'zlashtirmovchilar qatoriga kirib qoladilar. Xuddi shu tarzda aqli zaiflar qatoriga noto'g'ri qo'shib qo'yilgan nuqsonsiz bola sun'iy ravishda o'z rivojlanishida orqada qola boshlaydi. Chunki nuqsonli bolalar ta'limi materiallari unga yengillik qiladi, u o'z ong-bilim doirasiga mos bilim olmasligi natijasida uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi. Yordamchi maktab dasturi materiallari elementar, sodda mazmunda tuzilganligi uchun nuqsonsiz bolalarning bilishga bo'lgan talablarini qondira olmaydi. Bolaning aqliy rivojlanishigina emas, balki umumiy rivojlanishi ham orqada qoladi. Ayniqsa, shaxsiy sifatleri noto'g'ri shakllana boshlaydi. Bulardan tashqari, bunday bolalarning ota-onalariga ham og'ir ruhiy ta'sir yetkaziladi. Bunday noxush, ko'ngilsiz holatlar aqli zaiflikning mohiyatini tushunib yetmaslik natijasida sodir bo'ladi. Shuning uchun oligofrenopedagogikada aqli zaiflik masalasi alohida o'rganishni talab etadigan mavzulardan biridir.

Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog'lab, bunga bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadilar. Boshqacha aytganda, aqli zaiflikning moddiy asosi sifatida kasallangan bosh miya e'tirof etiladi. Bu kasallik natijasida bolaning bilish faoliyatlari keng ma'noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradorligi pasayadi. Bosh miya kasalliklari sababini kelib chiqishiga ko'ra ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) sabablarga bo'lishimiz mumkin. Aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar turli ilmiy, uslubiy, psixologopedagogik va tibbiy adabiyotlarda turlicha bayon etiladi.

Bu sabablarni qisqacha quyidagi tarzda ifodalashimiz mumkin:

- a) homila davrida turli salbiy ta'sir etuvchi infeksiya, intoksikatsiya va jarohatlar,
- b) tug'ilish vaqtidagi jarohat va asfiksiya;
- d) chaqaloqning ilk yoshida salbiy ta'sir etuvchi yuqumli intoksikatsiya, ovqatlanishning buzilishi va boshqalar;
- e) turli irsiy yo'l bilan avloddan-avlodga o'tadigan gen, xromosoma kasalliklari

Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar shartsiz reflekslarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi. Hatto ikki signal sistemalarining o'zaro aloqalarida buzilishlar ko'zga tashlanadi. Rus defektolog va psixologlaridan L.S.Vigotskiy, LV.Zankov, G.Ye.Suxareva, T.A.Vlasova, G.M.Dulnev, N.G.Morozova, S.Ya.Rubinshteyn, M.S.Pevzner, G.I.Rossolimo, V.G.Petrova, J.I.Namozboyeva, shuningdek, G.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov, P.M.Po'latova, V.S.Rahmonova va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, «aqli qoloq»likda ruhiy nuqson murakkab tuzilishga ega. Ularning ko'rsatishicha, bir tomondan, birlamchi nuqson ta'sirida oddiy aqliy jarayonlar buzilsa, ikkilamchi nuqson sifatida mohiyatning oliy shakllari, xotira, xarakter belgilari buzilar ekan.

Oligofrenopedagogikaning maxsus markazida turadigan manba nuqsonning o'zi emas, balki u bilan bog'langan buzilgan ruhiy holatlardir. Shu bilan birga, biz aqli zaif deb bu holatning turg'unligini ham tushunamiz. Mana shu mezonning bor yoki yo'qligiga qarab aqli qoloqlikni boshqa unga o'xshash turlardan farqlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Po'latova . P.M va b. Maxsus pedagogika – Toshkent .” Fan va texnologiya “, 2014
- 2.Xamidova .M.U. Maxsus pedagogika – Toshkent. “ Fan va texnologiya “, 2022
- 3.Po'latova .P.M . Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika)- Toshkent. “ G'ofur G'ulom” ,
4. <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/77032>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oligofrenopedagogika>